

IJRO MAHORATI VA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI ASOSIDA QORAQALPOQ VA O'ZBEK BAXSHICHILIK MAKTABLARINING TAQQOSIY TAHLILI

Barshinay Matnazarova

Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika fakulteti

Musiqo ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15555439>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpoq va o'zbek baxshichilik maktablaridagi ijro mahorati, ustoz-shogird an'anasi, ijrochilik uslublari hamda avlodlar davomiyligi o'rganiladi.

Ustoz-shogird maktabining folklor san'atida tutgan o'rni, maktablararo o'xshashlik va farqlar ilmiy-tahliliy jihatdan yoritiladi. Tahlil natijalari baxshichilik san'atining madaniy barqarorligini saqlab qolishdagi asosiy omillarni ochib beradi.

Kalit so'zlar: baxshichilik, ustoz-shogird an'anasi, Qoraqalpoq maktabi, o'zbek maktabi, ijro mahorati, folklor, og'zaki ijodi.

МАСТЕРСТВО ИСПОЛНЕНИЯ И ТРАДИЦИЯ НАСТАВНИКА-УЧЕНИКА В ШКОЛАХ БАХШИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КАРАКАЛПАКСКИХ И УЗБЕКСКИХ ШКОЛ БАХШИ

Аннотация. В статье изучаются исполнительское мастерство, традиция «мастер-ученик», стили исполнения и преемственность поколений в каракалпакской и узбекской школах бахши. Научно и аналитически освещена роль школы учитель-ученик в фольклорном искусстве, а также сходства и различия между школами. Результаты анализа раскрывают основные факторы сохранения культурной устойчивости искусства бахши.

Ключевые слова: традиция бахши, традиция наставника-ученика, каракалпакская школа, узбекская школа, исполнительское искусство, фольклор, устное творчество.

MASTERY AND THE MASTER-STUDENT TRADITION IN BAKHSHI SCHOOLS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF KARAKALPAK AND UZBEK BAKHSHI SCHOOLS

Abstract. This article studies the mastery of the master-student tradition, performance styles, and generational continuity in Karakalpak and Uzbek Bakhshi schools. The role of the master-student school in folk art, similarities and differences between schools are scientifically and analytically examined. The results of the analysis reveal the main factors in maintaining the cultural stability of Bakhshi art.

Keywords: Bakhshi, master-student tradition, Karakalpak school, Uzbek school, mastery, folklore, oral art.

Baxshichilik san'atining ildizlari qadimiy turkiy xalqlar og'zaki ijodiga borib taqaladi.

Miloddan avvalgi davrlardan boshlab shoir-baxshilar xalqni ruhlantiruvchi, tarixiy voqealarni yodda saqlovchi va yosh avlodga axloqiy pand-nasihat beruvchi sifatida faoliyat yuritganlar.

Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib kabi mualliflar o'z asarlarida baxshilarning ijtimoiy roliga urg'u bergenlar. O'zbek va qoraqalpoq xalqlarida esa bu san'at mustaqil maktablar shaklida rivojlangan. Ustoz-shogird an'anasi faqat ijodiy uzluksizlik emas, balki ma'naviy va axloqiy tarbiyaning vositasi hamdir.

Baxshilar o‘z shogirdlarini avvalo “eshitish” (diqqat), “yod olish” (xotira), “his qilish” (estetik did), so‘ngra “ijro” bosqichlari orqali tarbiyalaydilar.

Baxshichilik – Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy og‘zaki ijod san’atidir. Bu san’at turi o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari orasida asrlar davomida ustoz-shogird an’anasi orqali avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Har ikki maktab o‘ziga xoslikka ega bo‘lsa-da, ular orasidagi umumiylilik va farqlilik jihatlari ijro uslubi, repertuar boyligi hamda didaktik yo‘nalishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu maqola mazkur jihatlarni qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqotda quyidagi uslublar qo‘llanildi:

Taqqosiy-tahliliy yondashuv – qoraqalpoq va o‘zbek baxshilarining ijro maktablari o‘rtasidagi umumiylilik va farqlarni aniqlash.

Tarixiy-etnografik tahlil – baxshichilikda ustoz-shogird an’anasi shakllanishining tarixiy asoslarini ko‘rsatish.

Intervyu usuli – Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston hududlaridagi zamonaviy baxshilar bilan suhbat asosida amaliy tahlil. Manbaviy asos sifatida baxshi ijodiga oid to‘plamlar, ilmiy maqolalar, shuningdek og‘zaki hikoyatlar foydalanildi.

Bu model bugungi musiqiy-pedagogik tizimlar bilan uyg‘unlashgan. Qoraqalpoq baxshilarida bu ko‘proq “oila davrasida” yoki “yoshlar davrasida” shakllansa, o‘zbek baxshilarida do‘mbira chalish maktablari orqali rasmiylashtirilgan.

Zamonaviy o‘zbek baxshilaridan biri – Odilxon To‘xtanazarov o‘z intervyularida ustozlaridan nafaqat ijro uslubini, balki xalq bilan muloqot qilish madaniyatini ham o‘rganganini aytadi. Qoraqalpoq baxshilaridan esa Matnazar Yusupov o‘z shogirdlari bilan bir necha bor xalqaro festivalda qatnashgan. Ularning chiqishlari ustozdan o‘zlashtirilgan an’anaviy dostonlarni zamonaviy elementlar bilan uyg‘unlashtirgan. Bugungi global axborot davrida baxshichilik san’ati yoshlar orasida unutilib borayotgan madaniy qatlama sifatida baholanmoqda.

Biroq bu san’atni raqamli texnologiyalar orqali targ‘ib qilish (masalan, YouTube, Spotify, doston ilovalari yaratish) yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. O‘zbekistonda “Baxshichilik san’ati” UNESCOning Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgani bu soha uchun xalqaro e’tirofni anglatadi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Ustoz-shogird an’anasi har ikki maktabda ijodiy uzviylik va barqarorlikni ta’minlab kelgan. Masalan, o‘zbek baxshilaridan Fazilat baxshi – Mardon baxshi – Sherali Jo‘rayev kabi izchil zanjir mavjud bo‘lsa, qoraqalpoqlarda Berdimbet baxshi – Dosjan baxshi – Matnazar Yusupov kabi an’anaviy davomiylilik kuzatiladi.

2. Ijro mahorati bo‘yicha farqlar: O‘zbek baxshichiligidagi musiqiy asbob – do‘mbira muhim rol o‘ynaydi, Qoraqalpoq baxshilarida esa ayrim hollarda cholq‘usiz ijro ham uchraydi.

3. Repertuar: O‘zbek baxshilar ko‘proq epik dostonlarga urg‘u bersa, qoraqalpoq baxshilar lirika va folklor hikoyatlarini ham ko‘proq kuylaydi.

4. Uslub: O‘zbek baxshichiligidagi melizmatika va keng ovoza ustun bo‘lsa, qoraqalpoq maktabida soddaligi bilan ajralib turadi. Ustoz-shogird tizimi – baxshichilik maktablarining asosiy tamoyillaridan biridir. O‘zbek va qoraqalpoq maktablarining har ikkisi an’anaviy asosda rivojlanib, san’atda ma’naviy uzlusizlikni ta’minlagan. Farqli jihatlar esa bu maktablarning o‘z muhitiga moslashgan holda shakllanganidan dalolat beradi.

Misol uchun, qoraqalpoq baxshilarining ko‘pchilik hollarda epik emas, balki balladik asarlarga urg‘u berishi – bu xalq ruhiyatining badiiy ifodasi bilan bog‘liq. Zamonaviy sharoitda bu maktablarning mavjudligi va rivojlanishida ustoz-shogird an’anasining davom ettirilishi ta’lim tizimiga ham kirib borayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, baxshichilik san’ati oliv o‘quv yurtlarida o‘qitila boshlangani bu boradagi ijobiy siljishdir.

1. Baxshichilikning funksional mohiyati

Baxshichilik san’ati faqatgina madaniy-estetik hodisa emas, balki: Tarixiy xotirani saqlovchi institut (dostonlar orqali milliy ongni uyg‘otish), Axloqiy me’yorlarni tarbiyalovchi vosita (xalq orasida “baxshi gapirsa, el tinglaydi” degan ibora mavjud), Jamoaviy identitetni mustahkamlovchi kuch (bayramlarda, to‘ylarda, marosimlarda birlashtiruvchi rol o‘ynaydi) sifatida xizmat qiladi. Qoraqalpoq va o‘zbek baxshichilik maktablari ko‘plab umumiy jihatlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning har biri o‘ziga xos badiiy uslub, ijro texnikasi va madaniy kontekst bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq baxshilari dostonlarni ko‘proq og‘ir va falsafiy mazmunda ijro etadilar. Ularning asarlarida ko‘p hollarda epik obrazlar, tarixiy voqealar va xalqning ruhiy dunyosi aks ettiriladi. Dostonlar ko‘pincha uzun, yirik hajmli va voqeaviy jihatdan tugallangan bo‘ladi. Ovoz ohangi pastroq, izchil va bardavom bo‘lib, tinglovchini chuqur mulohazaga chorlaydi.

2. Qoraqalpoq va o‘zbek baxshichiligi maktablarining farqlari.

O‘zbek baxshichiligidida esa ko‘proq dramatik va romantik ohanglar ustuvorlik qiladi.

Dostonlar ohangdor va ritmik tarzda kuylanadi. O‘zbek baxshilari do‘mbira asbobida ijro etadigan dostonlarida ko‘pincha sevgi, sadoqat, sarguzasht va milliy qadriyatlar aks etadi.

Shuningdek, o‘zbek baxshilarining ijrosida sahnaviy elementlar – mimika, hissiy ifoda va auditoriya bilan jonli aloqaga alohida urg‘u beriladi. Ijro usullariga kelsak, qoraqalpoq baxshilari dutor, kobiz yoki ayrim hollarda chang kabi milliy cholg‘u asboblaridan foydalanadilar. Ularning doston aytish jarayoni ko‘pincha norasmiy muhitda – oilaviy yig‘inlar, qishloq anjumanlari va marosimlarda kechadi. Bu esa ularni bevosita xalq orasida, jonli og‘zaki an’anaga tayangan holda ijod qilishga undaydi. O‘zbek baxshilari esa ko‘proq do‘mbira bilan ijro etishadi va bugungi kunda ularning aksariyati sahnada – an’anaviy festivallar, teatr sahnalari va rasmiy madaniy tadbirlarda ishtirok etishmoqda. Ularning ijrosi estetik jihatdan ko‘proq teatrga yaqinlashib, vizual ifoda va artistik mahorat bilan boyitilgan. Ustoz-shogird tizimi har ikki maktabda muhim ahamiyatga ega.

Ammo qoraqalpoq maktabida bu tizim asosan og‘zaki, norasmiy shaklda avloddan-avlodga o‘tadi. O‘zbek baxshichiligidida esa shogirdlar ko‘pincha rasmiy tarzda tayyorlanadi: usta baxshilar tomonidan dars beriladi, talabalar sahna ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi va turli baxshichilik tanlovlari orqali o‘z mahoratini sinab ko‘rishadi. Umuman olganda, har ikki maktab turkiy xalqlar og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lib, ular milliy madaniyatni saqlashda, yosh avlodni tarbiyalashda va tarixiy xotirani tiklashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday maktablarning davomiyligi va taraqqiyoti esa ustoz-shogird an’anasini, mahalliy madaniy muhit va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tiborga bevosita bog‘liq.

3. Metodologik yondashuv: Ustoz-shogird modelining tizimli tahlili

Baxshichilikda ustoz-shogird tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Tinglovchi shogird – ustozning chiqishlarini kuzatish orqali qiziqish uyg‘onadi.

2. Yod olish bosqichi – dastlabki satrlar, keyinchalik to‘liq dostonlar yod olinadi.
3. Mustaqil ijro bosqichi – ustoz nazorati ostida kichik marosimlarda ishtirok etish.
4. Ijodiy izlanish bosqichi – shogird yangi dostonlar, qo‘sish va variantlar yaratadi.
5. Ustozlik bosqichi – shogird o‘zi yangi avlodni tayyorlaydi.

4. Baxshichilik va raqamli transformatsiya

Bugungi kunda ko‘plab baxshilar:

YouTube va Instagram orqali dostonlar va xalq qo‘sishlarini jonli efirda kuylamoqda.

“Folklor audio arxivlar” loyihasi orqali raqamli audio-kitoblar yaratmoqda.

O‘zbek milliy konservatoriyasi, Nukus san’at instituti huzurida baxshichilik to‘garaklari faoliyat yuritmoqda.

Misol: O‘zbekiston milliy konservatoriyasida 2023-yilda tashkil etilgan “Ijro san’ati – baxshichilik” kafedrasi talabalarini professional sahnaga olib chiqishga tayyorlamoqda.

5. Xalqaro kontekst

Qirg‘iziston va Qozog‘istonda ham baxshichilikka o‘xshash an'analar bor: aytish (qirg‘izcha), zhira (qozog‘cha).

Turkiyada ashiklar an'anasi mavjud bo‘lib, u ham ustoz-shogird tizimiga asoslangan va eposlar kuyylanadi.

UNESCO tomonidan baxshichilik 2019-yilda “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilgan.

XULOSA

Qoraqalpoq va o‘zbek baxshichilik maktablaridagi ijro mahorati va ustoz-shogird an'anasi – bu san’at turlarining asosiy poydevoridir. Har ikki mактаб o‘zbek xalqlari madaniy merosining ajralmas qismidir. Ularning o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish orqali baxshichilikning zamонавиy avlodga yetkazilishida an'anaviy yondashuvning ahamiyati yoritildi. Ustoz-shogird maktabining hozirgi zamonda ham dolzarbligicha qolayotgani, uni saqlab qolish yo‘llari va zamонавиy ta’limga integratsiyasi alohida e’tiborni talab qiladi, farqlar esa mahalliy shart-sharoit va tarixiy taraqqiyot bilan bog‘liq. Ustoz-shogird mактаби har ikki xalqda madaniy genetikani saqlab qoluvchi muhim institutdir. Mazkur an'anani ilmiy asosda o‘rganish, uni amaliyotga tatbiq qilish va yosh avlodga yetkazish orqali baxshichilik san’atining kelajagi ta’milanadi. Baxshichilik maktablarining mavjudligi — bu nafaqat san’atni saqlab qolish, balki tarixiy, axloqiy, madaniy va psixologik identitetni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy institutdir. Ustoz-shogird an'anasi esa bu institutni barqaror tutuvchi asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Baxshichilik – turkiy xalqlarning og‘zaki an'anaviy ijodiyoti va madaniy merosining ajralmas qismi sifatida bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Qoraqalpoq va o‘zbek baxshichilik maktablari o‘ziga xos ijro uslubi, mazmuniy yo‘nalishi, estetik yondashuvi va tarbiyaviy ahamiyati bilan bir-biridan farq qiladi. Har ikki maktabda ustoz-shogird an'anasi ijodiy avlodlar uzviyligini ta’minlovchi, madaniy barqarorlikni saqlovchi asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Qoraqalpoq baxshichiligi ko‘proq falsafiy va epik yo‘nalishda bo‘lsa, o‘zbek baxshiligi dramatik va hissiy ifodalarga boy. Biroq ularni birlashtirib turuvchi jihat – bu xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatları va milliy ruhiyatini ifodalashga bo‘lgan sadoqatidir.

Bugungi globallashuv va raqamlı transformatsiya davrida baxshichilik an'analarini saqlab qolish, uni yosh avlodga yetkazish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish dolzarb vazifalardan biridir. Shu boisdan, davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish, darslik va o'quv dasturlariga kiritish kabi chora-tadbirlar orqali bu beba ho madaniy merosni asrash va rivojlantirish zarur. Baxshichilik faqat og'zaki ijod emas – u milliy o'zlik, tarixiy ruh va madaniy mustaqillik timsolidir. Qoraqalpoq va o'zbek baxshichilik maktablari — o'zaro mushtarak ildizlarga ega bo'lgan, ammo o'ziga xos shakl va mazmunda rivoj topgan madaniy meros tizimlaridir. Har ikkala maktab ham turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, tarixiy xotirasi va badiiy tafakkurining yuksak namunasi sifatida qadrlanadi. Baxshichilik san'ati orqali xalq o'z orzu-umidlarini, g'am-tashvishlarini, tarixiy yodgorliklarini va axloqiy-me'yoriy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazadi. Ustoz-shogird an'anasi har ikki maktabda ijodiy merosning uzviyigini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Qoraqalpoq baxshichilik maktabida bu an'ana ko'proq og'zaki va norasmiy shaklda saqlanib qolgan bo'lsa, o'zbek baxshichilik maktabida esa bu jarayon nisbatan tizimlashtirilgan, sahna madaniyatiga yo'naltirilgan va tashkilotlangan shaklda rivoj topmoqda. Bu farq ularning taraqqiyot darajasi, zamonaviylikka moslashuvi va yosh avlodga ta'sirchanligida ham aks etadi.

Maktablar o'rtasidagi farqlar, ayniqsa, dostonlarning tematik yo'nalishi, ijro texnikasi, qo'llaniladigan cholg'u asboblari hamda auditoriya bilan aloqada yaqqol namoyon bo'ladi.

Qoraqalpoq baxshilari ko'proq epik, tarixiy va falsafiy asarlar ijrosi bilan ajralib tursa, o'zbek baxshilari hissiy, dramatik va sahnaviy ohanglar bilan boyitilgan ijro maktabini rivojlantirgan. Zamonaviy davr bu qadimiy an'analarni yangi muhitga moslashtirish, raqamlı platformalarda targ'ib etish va xalqaro miqyosda tanitish vazifasini qo'yadi. Shunday ekan, baxshichilik san'atining uzoq umr ko'rishi uchun uni nafaqat folklor yodgorligi sifatida saqlash, balki zamonaviy san'at, ta'lim va texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarur. Davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot ishlari, ijodiy maktablar faoliyati va ommaviy axborot vositalari bu yo'nalishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi lozim. Qoraqalpoq va o'zbek baxshichilik maktablarini chuqur o'rganish, ularni o'zaro taqqoslash, ustoz-shogird an'anasi mustahkamlash, yoshlar orasida bu san'atga qiziqishni oshirish — madaniy merosni asrash va uni global maydonga olib chiqishning muhim omillaridan biridir. Baxshichilik nafaqat milliy g'urur timsoli, balki ma'naviy tarbiya, estetik did va xalq ruhiyatining barqarorligini ta'minlovchi vositadir.

REFERENCES

1. Sultonov, M. (2019). O'zbek baxshichiligi tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Jo'rayev, S. (2020). "Ustozlik va shogirdlik an'analar haqida". San'at va jamiyat, №4.
3. Berdibayev, R. (2008). Epik janrlar va baxshichilik an'ani. Toshkent: Adabiyot.
4. Yusupov, M. (2022). Intervyu: "Baxshichilik bugungi kunda". Nukus: Qoraqalpoq san'ati jurnali.
5. Abdullayev A. (2019). O'zbek baxshichilik san'ati: An'analar va zamonaviylik. Toshkent: "San'at" nashriyoti.
6. Matniyazov O. (2020). Qoraqalpoq baxshiligi tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari. Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti.

7. Karimov H. (2018). “Baxshichilikda ustoz-shogird an’anasi va uning pedagogik asoslari”. // O’zbek tili va adabiyoti, №4, 45–50-betlar.
8. Ismailov S. (2017). “Baxshilar maktabi va xalq og‘zaki ijodi: Qiyosiy tadqiq”. // Milliy meros jurnali, №2, 21–29-betlar.
9. Berdax she’riyati va Qoraqalpoq baxshichilik an’analari. (2021). Nukus: “Ilm ziyosi” nashriyoti.
10. Jorayev O. (2022). Og‘zaki an’anaviy ijod va sahna san’ati o‘zaro bog‘liqligi. Toshkent: “Fan va turmush” nashriyoti.
11. Xasanov M. (2015). “O’zbek dostonchilik san’ati: Formasi va funksiyasi”. // Sharq yulduzi, №1, 33–40-betlar.
12. Yusupov B. (2021). Turkiy xalqlar baxshichilik mакtablarining taqqosiy tahlili. Toshkent: “Ijodiy meros” nashriyoti.